



Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal

e-ISSN: [30660-1540 \(online\)](https://doi.org/10.30660/1540)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 9

Published: 02.12.2024 <https://universaljurnal.uz>

International indexes

GOOGLE SCHOLAR

CROSSREF (OAK BAZA)

ZENODO

OPEN AIRE

EUROPUB

RESEARCHGATE (OAK BAZA)

SJIF



Sotvoldiyeva Nilufar Ilhomjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Uzbekistan

GINKGO BILOBA L. O'SIMLIGINING BOTANIK TAVSIFI, TARQALISHI VA AHAMIYATI

Abstract: This article discusses the morphology, botanical description, distribution, and importance of the ginkgo biloba plant. Ginkgo biloba is an open-seeded plant. It can be used in landscaping. It is a beautiful plant that is resistant to fungal diseases, insects, and air pollution.

Keywords: Ginkgo biloba, silver fruit, silver apricot, Jurassic, Cretaceous, Tertiary, evergreen tree.

Annotatsiya: Ushbu maqolada ginkgo biloba o'simligining morfologiyasi, botanik tavsifi, tarqalishi, ahamiyati yoritib berilgan. Ginkgo biloba ochiq urug'li o'simlik hisoblanadi. Ko'klamzorlashtirishda foydalansa bo'ladi. U zamburug' kasalliklariga, hasharotlarga, havoning ifloslanishiga yaxshi chidaydigan chiroyli o'simlik hisoblanadi.

Kalit so'zlar: ginkgo biloba, kumush meva, kumush o'rik, yura, bo'r, uchlamchi davr, umrboqiy daraxt.

Аннотация: В этой статье описаны морфология, ботаническое описание, распространение и значение растения гинкго двулопастный. Гинкго двулопастный - растение с открытыми семенами. Можно

использовать в ландшафтном дизайне. Это красивое растение, устойчивое к грибковым заболеваниям, насекомым и загрязнению воздуха.

Ключевые слова: гинкго двулопастный, плоды серебристые, слива серебристая, юра, мел, третичный период, вечное дерево.

Language: Uzbek

Citation: Sotvoldiyeva , N. BOTANICAL DESCRIPTION, DISTRIBUTION AND IMPORTANCE OF GINKGO BILOBA L. Universal International Scientific Journal, 1(9), 8–10. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1199>

Doi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14293458>

Ginkgoales hozir Ginkgoaceae degan atigi bitta oilani o'z ichiga oladi, bu oilaning birdan-bir vakili ginkgo (Gingko biloba) dir. O'tmish geologik davrlarda bu tartib anchagina formalarga ega bo'lib, Ginkgo biloba hozir yovvoyi holda uchramaydi va Xitoy bilan Yaponiyada, shuningdek, G'arbiy Yevropaning botanika bog'larida ko'plab o'stiriladigan madaniy o'simlik sifatidagina ma'lum. Bu o'simlik 1960- yilda fanga ma'lum bo'lgan. 1712- yilda esa Gollandiyaning Yaponiyadagi elchixonasining tabibi B. Kempfer tomonidan unga ginkgo, yaponchadan tarjima qilinganda "kumush o'rik" yoki "kumush meva" deb nom bergan. Yaponiya bozorlarida uning iste'mol qilinadigan urug'ini shunday deyishgan. Ginkgoni bo'yi 30 m va undan undan ham balandroq, tanasining diametri 3 metrdan ortiqroq keladigan yirik daraxt. Yoshligida piramidasimon ko'rinishda bo'ladi. Yon shoxlari deyarli to'g'ri burchak hosil qilib chiqadi. Po'stlog'i kulrang tusda, g'adir- budur. Ginkgo (Ginkgo biloba) - ochiq urug'li

o'simliklar bo'limining ginkgodoshlar oilasiga mansub hozirgi yagona vakili. Daraxtning yosh niholi ba'zi nina bargli daraxtlarga o'xshab ketadi, ammo bora-bora tashqi ko'rinishdan terak tusini oladi. Barglari bandli, yelpig'ichsimon, o'rtasida o'yig'i bor, kuzda to'kiladi. Bargining chetlari tekis, egri- bugri yoki bir oz kesilgan bo'lib, uchlari ikki pallaga bo'lingan, barg bandi 10-12 sm uzunlikda. Ginkgo barg tashlovchi daraxtdir. Gullari mayda va ko'rimsiz. May-iyun oylarida gullaydi, oktyabr-noyabr oylarida meva beradi. Mevasi cho'ziq tuxumsimon bo'lib, olxo'ri mevasiga o'xshab, qo'lansa hidli bo'ladi. Ochiq urug'li o'simliklar ichida ginkgoda harakatchan spermatozoidlar borligini birinchi marotaba yapon olimi S. Xiraze 1896- yili Tokio universitetining botanika laboratoriyasida aniqlangan. Ginkgo madaniylashtirilgan daraxt. U o'zining chiroyli va yirik barglari bilan eng manzarali o'simliklar qatorida turadi. Ginkgo ikki uyli o'simlik, erkak va urg'ochi gullari kichikroq kuchalalarga to'plangan. Urug'i

yumaloq, danakli mevaga o'xshaydi. Mevasi va urug'i yeyiladi. Janubiy Xitoyning ba'zi joylaridagina yovvoyi holda o'sadi. Qrimning janubida va Kavkazning Qora dengiz sohilida ekiladi. O'rta Osiyoda ginkgoning barg va yog'och qoldiqlari yuqori perm va trias davriga tegishli yotqiziqlarda topilgan. O'rta osiyo hududida ginkgoning 15 dan ortiq turi o'sgan. Jumladan 2 turi Janubiy O'zbekistonda, Tojikiston va Turkmanistonda o'sganligi aniqlangan. Ginkgoning bir qancha turlari Shimoliy O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va deyarli hamma davlatlarda Yura, Bo'r va Uchlamchi davr qatlamlaridan topilgan.

Ginkgo tabobatda dorivor o'simlik sifatida mevasini qaynatib va qovurib ozuqa sifatida iste'mol qilib kelingan. Yog'ochlari bo'sh bo'lganligi tufayli duradgorlikda ishlatilgan. Ginkgo turli sernam tuproqlarda yaxshi o'sadi, havoning changligiga, tutunlarga, shamolga, sovuqqa chidamli, ildizi mahkam, kuchli daraxt, tez o'sadi, yaxshi novdalar hosil qiladi. O'simtalar daraxt to'nkasi va ildizlaridan

chiqadi. Ginkgo urug'i hamda qalamcha yo'llari bilan yaxshi ko'payadi. Uni yozda och-yashil, kuzda tilla-sariq rangli bargli o'simlik bo'lganligi tufayl turli bog'larda, janubiy rayonlarda tashkil qilinayotgan qo'riqxonalarda, buyurtmalarda o'stirish maqsadga muvofiqdir. Chunki ginkgo bahordan to kech kuzgacha yaxshi ko'rinishli manzara hosil qilib, odamlarni o'ziga jalb qiladi, bironta inson uning oldidan to'xtamasdan o'ta olmaydi. Ginkgoning bog'larini muhofaza qilish, yo'q joylarda ekish, daraxtni ko'paytirish - har birimizning vazifamizdir. Hozirgi kunda ginkgo deyarli hamma mamlakatlarning botanika bog'lari va parklarida madaniy holda o'stiriladi. Ginkgo- umrboqiy o'simlik. Xitoy Yaponiya, Koreyada 1000 yoshli va undan ham kattaroqlari bor. Ginkgoni urug'i hamda qalamchasidan ko'paytirish mumkin. Shuning uchun ko'kalamzorlashtirishda foydalansa bo'ladi. U zamburug' kasalliklariga, hasharotlarga, havoning ifloslanishiga yaxshi chidaydigan chiroyli o'simlik hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Zaxarov V.B., Mamatov S., *Общая биология*. М., 2002;
2. Chyen-sov Yu.S., *Общая цитология*, М., 1984;
3. Grin N., Staut U., Teylor D., *Biologiya*, t. 1-3. М., 1990;
4. Mavlonov O., *Biologiya (Ma'lumotnoma)*, Т., 2003.
5. N.Grin va boshq. "Biologiya". 1990y.
6. A.S.Troshin va boshq. "Sitologiya". 1970y-.
7. T.B.Boyqobilov, X.Ikromov "Sitologiya."1980y.
8. Sattiboev M.S. "O'simlik hujayrasi".Т. 1990y.